



## NODAVLAT MAKTABGACHGA TA'LIM MUASSALARINI TASHKIL ETISH

---

*Durdiyeva Mohinur Adilbek qizi*  
*Erjanova Saboxon Baxtiyorovna*  
*UrDU Pedagogika fakulteti Maktabgacha*  
*ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi*  
*Yusupov Xamza Kurbonnazarovich*  
*Xalqaro Nordik universiteti*  
*"Ta'lim muassasalarini boshqarish"*  
*yo'nalishi 1- kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bo'yicha ruxsatnoma berish tartibi to'g'risida nizomlarni tasdiqlash haqida bilimlarga ega bo'lasIZ.

**Kalit so'z:** maktabgacha ta'lim, nodavlat, kompensatsiyalar, samarali sarflash

O'zbekiston Respublikasi Moliya va Maktabgacha ta'lim vazirliklarining tegishli topshiriqlariga asosan nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari hamda davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida tashkil etilayotgan maktabgacha ta'lim muassasalariga davlat byudjeti mablag'lari hisobidan har oylik kompensatsiyalar to'lash va subsidiyalar ajratish bo'yicha viloyat moliya bosh boshqarmasi tomonidan tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari hamda davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim muassasalariga me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida mablag' ajratilishini, ajratilgan byudjet mablag'larini ko'zlangan maqsadlarga o'z vaqtida yo'naltirilishini hamda samarali sarflanishini ta'minlash maqsadida shahar hamda tumanlar moliya bo'limlarida quyidagi tartibda ish tashkil etilmoqda: Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi va uning tizimidagi muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 991-sonli qaroriga asosan joylardagi nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan foydalanilgan elektr energiyasi va tabiiy gaz xizmatlari uchun to'lovning 50 foizi o'z mablag'lari hisobidan hamda qolgan 50 foizi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplash;



Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 30 iyuldagi 595-sonli qarori bilan Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalariga oylik subsidiyalar ajratish bo'yicha:

- *joylarda tashkil etilgan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini aniqlash va tahlil qilish* (Bunda, tarbiyachi va yordamchi tarbiyachilariga tegishli toifa bo'yicha qisqa muddatli yoki 9 soatlik davlat maktabgacha ta'lim muassasalari uchun belgilangan mehnatga to'lanadigan haqqa teng shartlarda va hajmlarda ish haqini hisoblab chiqishda Maktabgacha ta'lim vazirining 2018 yil 15 oktyabrdagi 215-sonli buyrug'i asosida amalga oshirilishini nazoratga olish);

- oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari uchun davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga belgilangan normativlar bo'yicha ovqatlanish, yumshoq inventar, anjomlar va dori-darmonlarga ajratilgan miqdorlardan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblar asosida zarur mablag'lar ajratish yuzasidan taklif kiritish;

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 19 maydagi 378-sonli qaroriga asosan Davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida faoliyat yuritadigan nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalariga oylik subsidiyalar ajratish bo'yicha:

- joylardagi davlat-xususiy sherikchilik asosida faoliyat yuritayotgan nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan oylik subsidiyalar ajratish yuzasidan qilingan ariza shaklidagi murojaatlarni qabul qilish;

- ushbu murojaatlarni maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan Nizom talablariga mos ravishda to'g'ri kelishini o'rganish (Bunda, har oyda ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan har bir bola uchun (9 va 10,5 soatlik ish rejimidagi) davlat maktabgacha ta'lim muassasasining bir nafar tarbiyalanuvchisiga sarflanadigan xarajatlarni Maktabgacha ta'lim hamda Moliya vazirliklarining qo'shma xatiga asosan viloyat markazlarida (40 foiz)-88464 so'm, qolgan hududlarda (50 foiz)-110579 so'm qilib belgilanganligi inobatga olinadi);

tuman (shahar) moliya bo'limlari ta'lim muassasasining arizasi kelib tushgandan keyin uning belgilangan talablarga mosligini o'rganib chiqadi hamda arizani qanoatlantirish yoki uni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi va ta'lim muassasasini subsidiyalar (kompensatsiya) ajratish yoki arizani rad etish to'g'risida asoslantirilgan holda yozma shaklda xabardor qilinadi. Bundan tashqari, davlat xususiy sherikchiligi asosida tashkil etilgan nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 apreldagi PQ-3651-son "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan belgilangan boshqa turdagi subsidiyalar jumladan:



- davlat maktabgacha ta'lim muassasasining bir nafar tarbiyalanuvchisi uchun sarflanadigan xarajatlar summasining 50 foizi miqdorida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan subsidiyalar ajratish;

- maktabgacha ta'lim muassasasining rahbarlari, metodistlari, tarbiyachilari, defektologlari, psixologlari, musiqa xodimlari ish haqiga sarflanadigan xarajatlarni qoplash uchun davlat maktabgacha ta'lim muassasalari uchun belgilangan shartlarda qo'shimcha byudjet subsidiyalarini olish huquqiga ega. Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari hamda davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim muassasalariga me'yoriy huquqiy hujjatlar asosida mablag' ajratilishini, ajratilgan byudjet mablag'larini ko'zlangan maqsadlarga o'z vaqtida yo'naltirilishini hamda samarali sarflanishini ta'minlash shahar hamda tumanlar moliya va maktabgacha ta'limi bo'limlari mudirlari zimmasiga yuklatilib, viloyat moliya bosh boshqarmasi tomonidan doimiy nazoratga olingan.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentabrdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ3776 qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-martdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibini takomillashtirish to'g'risida" 241-sonli qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3931 qarori.

5. [www.un.int/uzbekiston/new](http://www.un.int/uzbekiston/new)